Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромовна Ханифа Одилловна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA TAMOYILLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna

PhD, Toshkent moliya instituti, "Bank hisobi va audit" kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlar strategik boshqaruv hisobini tashkil etish asoslari va tamoyillari, strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlarining shakllanish xususiyatlari, strategik hisob ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beruvchi mezonlari va uning strategik boshqaruv hisobini tashkil etishdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: strategik boshqaruv hisobi, mezon, moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi, xo'jalik yurituvchi subyekt.

Abstract: The article describes the basics and principles of the organization of strategic management accounting of economic entities, the characteristics of the formation of strategic management accounting information, the criteria that determine the level of relevance of strategic accounting information, and its role in the organization of strategic management accounting.

Key words: strategic management accounting, criterion, financial account, management accounting, business entities.

Аннотация: В статье описаны основы и принципы организации стратегического управленческого учета хозяйствующих субъектов, особенности формирования стратегической учетной информации, критерии, определяющие уровень актуальности стратегической учетной информации, ее роль в организации стратегического управленческого учета.

Ключевые слова: стратегический управленческий учет, критерий, финансовый учет, управленческий учет, хозяйствующие субъекты.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiya qilish, chet el investitsiyalari hamda sarmoyalarini jalb qilish natijasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, ularda boshqarish uslublarini takomillashtirish, ya'ni xalqaro biznes yuritish tartib-tamoyillarini joriy etish alohida ahamiyatga molik masala hisoblanadi.

Ayni paytda respublikamizdagi barcha yirik korxonalar aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilib, korporativ boshqaruv usullari joriy etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar soni kun sayin ko'paymoqda. Bu iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanishi, sanoat salohiyatining oshishi, yuqori texnologiyali tarmoqlarning o'zlashtirishi, boshqacha aytganda, mamlakatimiz iqtisodining turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar raqobatbardoshligi oshishiga xizmat qilmoqda.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda zamonaviy boshqaruv texnologiyalarini joriy etishni rahbarlar tomonidan strategik qarorlar qabul qilishi uchun asos bo'ladigan tegishli tahliliy hisob ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash va tezkor tarzda taqdim etish mexanizmini joriy qilmasdan amalga oshirib bo'lmazligi ma'lum.

Butun dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni ta'siri va bozor raqobatining kuchayishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlardagi samarali strategik boshqaruvga tobora ortib borayotgan ehtiyoj strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish bo'yicha zamonaviy yechimlarni ishlab chiqish masalalarini ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Bu borada xo'jalik yurituvchi subyekt talablariga javob beradigan strategik boshqaruv hisobini amaliy jihatdan samarali tarzda tashkil qilish bo'yicha mavjud muammolarning ijobiy yechimini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar va kompaniyalarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan A. Apcherch, E. Atkinson, R. Banker, P. Bryuer, R. Garrison, K. Druri, R. Kaplan, E. Norin, K. Uord, Dj. Foster, Ch. Xorngren va M. Yangning ^[1] ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan I. N. Bogataya, V. B. Ivashkevich, V. E. Kerimov, I. G. Kondratova, I. Ye. Mizikovskiy, O. Ye. Nikolayeva, V. F. Paliy ^[2] strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A.Abdug'aniyev, N.B.Abdusalomova, A. Z. Avloqulov, A. K. Ibragimov, A. A. Karimov, M. B. Kalonov, U. U. Kostayev, B. Yu. Maxsudov, M. Q. Pardayev, A. X. Pardayev, N. K. Rizayev, B. A. Xasanov, A. A. Xashimov, I. K. G'iyosovlarning ^[3] ilmiy ishlarida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari qisman o'z aksini topgan.


TAHLIL VA NATIJADAR

Nazariy-uslubiy hamda ilmiy yondashuvlarning turli xilligi - ilmiy hamjamiyatda strategik boshqaruv hisobi mohiyati va uning funksiyalari borasida yagona bir yondashuvning shakllanmaganligini ko'rsatadi. Biroq ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, bir qator masalalar talqini borasida turli olimlar yondashuvlarida o'xshashliklar mavjud. Xususan, xo'jalik yurituvchi subyektning boshqaruv tizimida strategik boshqaruv hisobining roli va o'rnini aniqlash masalasida ularning ko'pchiligi bir xil yondashadi. Aniqrog'i, ko'plab olimlar bu borada strategik boshqaruvning quyidagi muhim qirralarini qo'rsatib bergan:

- uning vazifasi strategik qarorlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilganligi;
- asosiy vazifani bajarish uchun nafaqat xo'jalik yurituvchi subyektning mikromuhit ko'rsatkichlari, balkim tashqi bozor va makromuhit omillarini hamda ularning ta'sirlarini hisobga olish tizimi ekanligi;
- uning joriy, tezkor, istiqboldagi moliyaviy ma'lumotlar, shuningdek, boshqa turdagi ma'lumot manbalariga (ichki bozor sig'imi, tashqi bozor kon'yunkturasi, tadbirkorlikning moliya-kredit bozori tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, soliq yuki va shu kabilarga) ham tayanishi;
- nafaqat aniq dalillar, balki uzoq muddatli o'zgarishlar yoki muhim o'zgarishlarni kuzatishga qaratilganligini va h.k.

Ushbu yondashuvlar mohiyatini qo'llab-quvvatlagan holda, alohida qayd qilish joizki, strategik boshqaruv hisobi mohiyatini xo'jalik yurituvchi subyektni strategik boshqarish jarayoni va shu jarayonni hisob tizimi bilan bog'lab turuvchi asosiy zveno sifatida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Uning asosiy vazifasi uzoq istiqbolga mo'ljallangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'ladigan hisob-tahlil ma'lumotlarini shakllantirishdir ^[4].

Strategik boshqaruv hisobini boshqa hisob turlaridan ajratib turadigan tahliliy asoslarni yaratishda, bizning fikrimizcha, boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun foydali va zarur bo'ladigan hisob ma'lumotlari xususiyatlarini guruhlashtirish imkoniyatini yaratib beradigan xususiy modelga tayanish kerak (1-rasm):



1-pacm: Strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlarining shakllanish xususiyatlari¹

1 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Hisob ma'lumoti xususiyatlarining birinchi guruhini foydalanuvchilarga axborot so'rovlarining o'ziga xos xususiyatlari emas, balki axborot tizimiga xos xususiyatlar bilan aniqlanadigan universal sifat xususiyatlari tashkil qiladi. Bularga dolzarblilik, tekshiruvchanlik, representativlik, bashoratlilik, taqqoslanuvchanlik, shuningdek, mustaqillik va mavjudlik tamoyillarini kiritish mumkin. Mazkur tamoyillarning alohida xususiyatlari ularning oldindan belgilangan meyorlarga nisbat o'zgarishini hamisha o'lchash, ya'ni hisoblash imkoniyati mavjudligida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, hisob ma'lumotlari xususiyatlarini belgilovchi ikkinchi guruh "yaroqlilik xususiyatlari" deb nomlangan. Ularning mohiyati shundan iboratki, mavjud axborot to'plamini saralash va baholash jarayoni oldindan belgilangan ma'lumotlar to'plami orqali emas, balki oxirgi foydalanuvchilar tomonidan qo'yiladigan talablar asosida amalga oshiriladi.

Xuddi shuningdek, hisob ma'lumotlarining "favqulodda xususiyatlari"ni belgilab beruvchi uchinchi guruh tamoyillari ham muhim ahamiyatga egadir. Tizimli yondashuv atamalarida foydalilik (ahamiyatlilik) tahlil qilinayotgan obyektning tizim murakabligini ifodalaydi va uning alohida elementlari xususiyatlariga tizim xususiyatlarining nomutanosibligini bildiradi. Ana shu guruhga boshqaruvning har bir darajasi uchun hisob ma'lumotlarining mohiyati hamda ahamiyatini belgilab beradigan relevantlik va ishonchlilik xususiyatlarini kiritish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz [5].

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun hisob ma'lumotlarining relevantlik xususiyati muhim hamda betakror ahamiyatga ega. Ushbu xususiyat hisob ma'lumotlarining nafaqat to'liqlilik, dolzarblilik va haqqoniylik talablarini qondirishi, balki foydalanuvchilarning axborot talablariga atroflicha, o'z vaqtida, tezkor hamda to'liq javob beradi, deb hisoblaymiz. Masalaning muhimligi uchun shu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan deyarlik barcha xorijiy va mamlakatimiz olimlarining yondoshuvlarida hisob ma'lumotlarining relevantlik darajasi alohida e'tiborga olingan. Lekin, qayd qilish kerakki, hisob ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beruvchi mezonlar to'g'risida to'liq fikr-mulohazalar hech bir ilmiy ishda batafsil yoritilmagan. Masalan, V. F. Nesvetaylov strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beruvchi mezonlarning 4 guruhini, ya'ni muhimlik, foydalilik, yetarlilik hamda ishonchlilik tamoyillarini taklif etsa, ayrim iqtisodchilar uning 5 ta guruhini taklif etishadi.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida strategik boshqaruv hisobi ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beradigan asosiy mezonlar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin, deb hisoblaymiz (1-jadval):

1-jadval: Strategik hisob ma'lumotlarining relevantlik darajasini belgilab beruvchi mezonlar

№	Mezonlar	Mezonlarning tarkibi
1.	Aloqadorlik	Foydalanish uchun qabul qilinayotgan hisob ma'lumotlari qabul qilinishi mumkin bo'lgan strategik qarorlarga aloqadorli bo'lishi kerak.
2.	O'z vaqtidalik	Ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilsagina u relevantli bo'lishi mumkin. O'z vaqtida taqdim etilmagan ma'lumotlar, strategik qaror qabul qilinishi o'tgan zahotiyq o'zida relevantlik darajasini to'liq yo'qotadi.
3.	Muhimlik	Ma'lumotlar hisob bepuvchi birliklarning strategik holatini tasniflashi yoki strategik muhim ko'rsatkichlarni aniqlash uchun asos sifatida namoyon bo'lishi kepak. Ushbu ma'lumotsiz strategik baholash va ushbu obyektlar bilan ishlash imkoniyati mavjud bo'lmaydi yoki chegaralangan bo'ladi.
4.	Tezkorlik	Ma'lumotlar strategik boshqaruv qarorlari qabul qilinishi uchun taqdim etilayotganda tezkorlik, ya'ni hozirlik tamoyillariga javob berishi kepak.
5.	Foydalilik	Taqdim etilayotgan hisob ma'lumotlari strategik ahamiyatga ega bo'lgan qarorlar qabul qilish uchun eng asosiy va optimal ma'lumot sifatida namoyon bo'lishi kepak.
6.	Yetarlilik	Hisob ma'lumoti muhim ahamiyatga ega yordamchi o'zgartirishsiz strategik tahlilda ishlatilishi mumkin bo'lishi kepak.
7.	Ishonchlilik	Strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchlilik tamoyiliga javob berishi kerak.

1-jadvalda birinchi aks etgan aloqadorlik tamoyili – biron-bir iqtisodchi olimlar ilmiy ishlarida va tadqiqot natijalarida uchramaydi, ya'ni u biz tomonimizdan taklif etilayotgan yangi tamoyildir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bo'yicha strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun foydalanilayotgan hisob ma'lumotlari qabul qilinishi mumkin bo'lgan strategik qarorlarga aloqadorli bo'lishi kerak. Sababi, xo'jalik yurituvchi subyektlarda yuritiladigan buxgalteriya hisobining barcha turlarida shakllanadigan, umumlashtiriladigan ma'lumotlar hajmi juda katta bo'lib, strategik boshqaruv hisobida ana shu ma'lumotlarning 90-95 foizidan deyarlik hech qachon foydalanilmaydi, ya'ni ularning strategik qarorlar qabul qilish uchun aloqadorligi yo'q, shunga muvofiq ularga e'tiborni jalb qilish natijasida muhim bo'lgan boshqa ma'lumotlar e'tibordan chetda qolib ketishi ham mumkin. Aksincha, xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish hamda yuritish



uchun makromuhit darajasidagi ma'lumotlardan aloqadorli bo'lganlarini hisobga olish, umumlashtirish, tahlil qilish va taqdim etish borasida hali o'zining ijobiy yechimini kutib turgan qator muhim masalalar bor. Hozirgi globallashtirish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ta'siri bo'lmagan ma'lumotlarning ko'pligi boshqaruv xodimlarini strategik yo'nalishdan chag'itishi mumkin. Shuning uchun ham xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobi uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlar relevantli deb hisoblanishi uchun, ular eng avvalo, aloqadorlik tamoyiliga javob berishi kerak, deb hisoblaymiz[6].

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati doirasida qabul qilinadigan strategik qarorlarning samaradorligi bevosita ana shunday qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni ta'minlab beradigan hisob tizimining mavjudligiga bog'liqdir. Bunday tizimning o'ziga xos xususiyati - xo'jalik yurituvchi subyektning rahbarlari va mutaxassislariga beriladigan strategik ma'lumotlar taqdimotining doimiyligi va tizimlilikidir.

Tadqiqot mobaynida mavjud hisob turlarining qiyosiy tahlili olib borildi hamda moliyaviy, boshqaruv va strategik boshqaruv hisoblarini ajratib ko'rsatish imkoniyati aniqlandi. Ular orasidagi muhim farqlarni quyidagi uchta metodologik yondashuv orqali aniq kuzatish mumkin:

- hisob turlarining har biri boshqaruv qarorlari qabul qilishning turli shakllari va darajalariga qarab mo'ljallanadi;
- har bir hisob turida ma'lumotlarni relevantli deb topishning faqat o'ziga xos mezonlaridan foydalaniladi;
- rahbarlar va mutaxassislar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ma'lumot ta'minoti jihatidan qo'llab-quvvatlash ham turli darajada amalga oshiriladi [7].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, strategik boshqaruv hisobiga strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishni doimiy qo'llab-quvvatlovchi hisob-tahlil tizimi sifatida qarashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Strategik boshqaruv istiqbolli baholashga tayanar ekan, hisob-tahlil ma'lumotlar bilan ishlash jarayoni moliyaviy (buxgalteriya) yoki boshqaruv hisobida qo'llanilmaydigan uslub va texnologiyalarning vujudga kelishiga zamin yaratadigan keng va chuqur xususiyatga ega bo'ladi hamda turli xil hisoblar orasidagi farqlarni ajratish imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval: Strategik boshqaruv hisobining boshqa hisob turlaridan farqli jihatlari²

Farqlarini ko'rsatuvchi mezonlar	Hisob turlari		
	Moliyaviy hisob	Boshqaruv hisobi	Strategik boshqaruv hisobi
Hisob turining maqsadi	Subyektning moliyaviy holatini baholash uchun ma'lumotlarni shakllantirish	Rahbarlarning tezkor boshqaruv qarorlarini qabul qilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirish	Strategik qarorlarni qabul qilish uchun ma'lumotlarni shakllantirish
Tashkil etilishi va yuritilishi	Belgilangan tartibda tashkil qilinadi va o'rnatilgan tartib doirasida yuritiladi	Erkin tarzda va rahbarlar talab qiladigan shaklda	Erkin tarzda, lekin barcha mas'ullar bilan kelishilgan shaklda
Me'yoriy jihatdan tartibga solinishi	To'liq tarzda tartibga solingan	Yo'q	Yo'q
Ma'lumotdan foydalanuvchilari	Chegaralanmagan: tashqi va ichki foydalanuvchilar	Chegaralangan: rahbarlar	Chegaralangan: mulk egalari, rahbarlar va yuqori zveno menejerlari
Hisobning asosiy obyektlari	Xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va alohida xo'jalik jarayonlari	Xarajatlar va natijalar	Strategik ahamiyatga ega aktivlar, jarayonlar, natijalar, resurslar va mavjud barcha imkoniyatlar
Belgilangan ma'lumot xarakteri	Haqqoniy, birlamchi hujjatlarga asoslanadigan	Haqqoniy, tahliliy va istiqbol ko'rsatkichlari	Tahliliy va istiqbol hamda bashoratni belgilovchi
Relevantlik darajasi	Talab etilmaydi	Qisqa muddatli, ishlab chiqarish dasturi yoki alohida bo'limlar doirasida	Uzoq muddatli, makromuhit darajasida, raqobatbardosh bo'lishda o'z afzalliklariga ega bo'lishni ta'minlash
Ma'lumot to'plash darajasi	Past: alohida jarayonlarni aks ettirish darajasida	Past va o'rta: quyi bo'g'in yoki ishlab chiqarish dasturlari doirasidagi alohida jarayonlar	Yuqori: strategik muhim ahamiyatga ega obyektlar yoki tizim imkoniyatlari

2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Farqlarini ko'rsatuvchi mezonlar	Hisob turlari		
	Moliyaviy hisob	Boshqaruv hisobi	Strategik boshqaruv hisobi
Hisobotni taqdim etish muntazamligi	Muntazam: har bir hisobot davri uchun	Muntazam emas: boshqaruv (rahbariyat) tomonidan aniqlanadi	Muntazam emas: boshqaruv (rahbariyat) va mulk egalari tomonidan aniqlanadi
Hisobot ma'lumoti xarakteri	Haqqoniy (tarixiy)	Tarixiy va prognozlik	Tahliliy, istiqbolli va strategik

Taklif etilgan chegaralanish mazkur tizimlarning manfaatdor shaxslar (menejerlar, mulk egalari, ya'ni aksiyadorlar va h.k.) tomonidan qabul qilinishi, tahlil qilinishi hamda qaror qabul qilishi uchun qulay shakldagi muhim relevant ma'lumotlarni yetkazib berishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqot ishimizning oldingi boblarida qayd qilib o'tganimizdek, strategik boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining biron bir turlarida uchramaydigan, faqat o'ziga xos xususiyatlarga (2-jadval) ega, xususan: bu hisob turining obyekti strategik ahamiyatga ega aktivlar, jarayonlar, natijalar, resurslar hisoblanadi. Xo'jalik yurituvchi subyekt istiqbolda o'z oldiga maqsad qilib olgan ko'rsatkichlarga erishish uchun strategik salohiyat imkoniyatlarini (moddiy, moliyaviy va mehnat resurslari) baholaydi, mavjud resurslardan samarali foydalanish variantlarini taklif etadi, ichki hamda tashqi muhit va makromuhit omillari o'zgarishi natijasida vujudga keladigan vaziyatlarni baholash modellarini taklif etadi, vujudga kelishi mumkin bo'lgan chetlanishlarni korektirovka qilish mexanizmlarini tavsiya etadi.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bu hisob turining faqat o'ziga xos tomonlaridan yana biri – hisob ma'lumotlarining relevantlik darajasiga talabdir. Strategik boshqaruv hisobida foydalaniladigan ma'lumotlar uzoq muddatli, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektni makromuhit darajasida raqobatbardosh bo'lishni ta'minlash uchun uzluksiz tarzda o'z afzalliklariga ega bo'lib borishini ta'minlashi talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlangan davlatlar amaliyotida kompaniyalarning strategik boshqaruv hisobi strategik menejment hamda hisob-tahlil amaliyoti davomida shakllangan va rivojlanmoqda. Lekin, yuqorida ta'kidlaganimizdek, mam-lakatimiz iqtisodining turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida strategik boshqaruv hisobi, ayniqsa, moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish hali endigina shakllanish bosqichida. Shuning uchun ham eng avvalo, hozirgi paytda uni tashkil qilish va yuritish bilan bog'liq bo'lgan dastlabki, ya'ni uslubiy masalalar o'zining ijobiy yechimini topishi kerak. Shunga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishni hisob turlari o'rtasidagi farqlarni aniq belgilashdan boshlash lozim, degan xulosaga kelindi. Bu yerda asosiy e'tiborni tortadigan tomon – boshqaruv hisobi bilan strategik boshqaruv hisoblari o'rtasidagi farqlar chegarasi aniq belgilanishi, maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pardayeva Sh.A. Xo'jalik subyektlarida moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnal. www.interfinance.uz, №3, 2021-yil.
2. Pardayeva Sh.A. Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini samarali tashkil qilish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali, 2022-yil 2-son 141-145 betlar.
3. Pardaeva Sh.A. Improving strategic management accounting of financial results in business entities. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Impact Factor 7.455. Volume 3, issue 9 September 2022. www.scholarzest.com.
4. Pardaeva Sh.A. Integrated artificial intelligence and predictive maintenance of electric vehicle components with optical and quantum enhancements. Optical and Quantum Electronics Journal. <http://dx.doi.org/10.1007/s11082-023-05135-7>. July 2023.
5. P. Srinivasa Rao, Syed Irfan Yaqoob, Mohammed Altaf Ahmed, Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna, Syed Mufassir Yaseen & Mahendran Arumugam. Integrated artificial intelligence and predictive maintenance of electric vehicle components with optical and quantum enhancements. "Optical and Quantum Electronics" journal. <http://dx.doi.org/10.1007/s11082-023-05135-7>. 18 July 2023.
6. Anurag Vijay Agrawal, Mukesh Soni, Ismail Keshta, V.Savithri, Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna, Shweta Singh. A probability-based fuzzy algorithm for multi-attribute decision-analysis with application to aviation disaster decision-making. "Decision Analytics Journal". <https://doi.org/10.1016/j.dajour.2023.100310>. Volume 8, September-2023.
7. Pardayeva Sh.A. Strategik boshqaruv hisobida ko'rsatkichlar tizimi. "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali, 2023-yil 2-son. 227-232-betlar.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.